

BOLANI AQLIY RIVOJLANISHIDA TASVIRIY SAN'ATNING ROLI

Yuldasheva Oydin Xakimovna

*O'zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi
Qashqadaryo ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati psixolog*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lif tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar haqida tushuncha, ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san'at asarlari.

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolami hal etish ta'lif va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chihishga erishish, yosh avlodga ta'lif - tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lif tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maxsus maktab va maktabgacha tarbiya tizimini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir

Bugungi kunda mamlakatimiz maktablari uchun yangi pedagogik texnologiya asosida tayyorlanadigan dastur, darslik va o'quv-metodik qo'llanmalariga qo'yiladigan talablar va ularning ilmiy-pedagogik asoslari xususida qator pedagogik qo'llanmalar yaratildi. Bu qo'llanmalarda zamonaviy o'qitish va ta'lifning yangi tizimi, modeli, yangi pedagogik texnologiya, didaktika, metodika, Davlat ta'lif standard va o'quv dasturlari bo'yicha talqin etilishi ko'rsatilib, asoslab berilgan. Shunga ko'ra, har bir o'quv predmeti bo'yicha dastur, darslik, o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish bilan birga, ulami o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi ishlab chiqiladi. Shu jumladan, «Tasviriy san'at» o'quv fanining ham o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. Tasviriy faoliyat - bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda timmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqidir. Maktabgacha ta'lif tashkilotida tasviriy faoliyat bo'yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy tamoyili, bu tasviriy faoliyatni ta'lif-tarbiyaviy ishning eng muhim bo'limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi. Tasviriy san'atni o'qitishda g'oyat murakkab jarayonlar sodir bo'ladiki, bu davrda

o‘qituvchi bir necha metod va uslublardan foydalanadi, bunday metodlardan biri «Aralash metod» deb ataladi. Tasviriy san’atning barcha darslarida «Aralash» metodidan ham foydalaniladi. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish Aristotel davridan boshlanib, u Qadimgi Yunonistonda Sikion, Efes, Fivan mакtablarida takomillashadi. O‘rta asrlarda tasviriy san’atni o‘qitishning turlicha texnologiyasi, didaktika va metodikasi fan sifatida shakllana boradi. Lekin ularning barchasi stixiyali tarzda namoyon bo‘lib kelaveradi.

Tasviriy faoliyat kichik sinfdagi kar o‘quvchilami aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sensor rivojlanish - bu aqliy faoliyatning poydevori bo‘lib, butun mакtab yillarida ta’sir etish orqali ko‘rgazma-obrazli va ko‘rgazma-harakatli tafakkumi shakllantirishdir. Ma’lumki, buyuk olimlaming ijodida texnika va ishlab chiqarish arboblarining ongidagi aqliy va badiiy shakllari muvaffaqiyatli mos kelgan. Bolalarda tasviriy san’at darsida ko‘rgazmali-amaliy faoliyatida hamma fikrlash operatsiyalari shakllanadi. Tasvirlangan obyektni tekshirib, sinchiklab chiqishda ulaming detallarini ajratib, chizayotgan rasmlami tahlil qiladi, tasviriy tekislikda ushbu detallami qabul qilib, ma’lum fazoviy qismlami yaxlit bo‘lgan munosabatlariga qarab bir butunlikda birlashtiradi, sintez qiladi, obyektni alohida detallarini o’zaro ko‘tarib chiqish va butunligicha nisbatan, u solishtirishning fikrlash operatsiyasini bajaradi; predmetning umumiyligi shaklini ajratib, o‘zining e’tiborini faqat shu ko‘rilayotgan obyektga qaratadi; predmetlaming o‘xhash xossalari va turli belgilarini birlashtirib, bola ulami tasvirlashga umumlashgan usullami ishlab chiqaradi. Ranglami moslashtirish umumiyligi bo‘yoqni, rangini topish bulaming hammasi umumlashtirish bilan bog‘liq. Predmetning ko‘pgina o‘xhash qismlaridan ajratishda, rasm chizayotganda konkret hodisalami fikrlash operatsiyasiga asosan bajariladi. Tasviriy faoliyatda ko‘rish va harakat xotirasi ham yaxshi rivojlanadi, ulaming o‘zaro ta’siri shakllanadi. Chunki tasvirlash jarayonida nafaqat 86 qabul qilishni, balki turli chiziqchalar va har-xil yo‘nalishdagi chiziqchalami o‘tkazishni bilish, cho‘tka va boshqa usullar bilan ko‘rgazmalami qo‘lda kelishilgan holda ishlash o‘rgatiladi. Eng muhirai awal ko‘rgan predmet haqidagi tasavvuri hamda uni qanday tasvirlanganini va tasvirlash usuliarini eslab qolishi kerak

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyatlarda, qalam hamda mo‘yqalamdan erkin foydalanishga o‘z xarakterini va qo‘l kuchini idora etishga o‘rganadilar. Bu esa, malakani egallah, bolalarda qo‘lini engil, erkin bir tekisdagi xarakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proportsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga karab yo‘nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda xarakatlanishga o‘rganadilar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg’ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo’llarini rejalashtirishga o‘rganadilar. Bu

faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyatlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, kattakichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Tasviriy san'at darslari bolalarda go'zallikni ko'rish va xis qilishni, ajoyib g'aroyib narsalami saqlab va ko'paytirishni xohlaydilar. Tasviriy faoliyat mashg'ulotida o'quvchilaming shaxsiy sifatlaridan ziyraklik, tirishqoqlik, matonatli bo'lish tengdoshlari bilan do'stona o'zaro munosabatda bo'lishni, o'zgalar tomonidan bajargan ishlarga hurmatni tarbiyalash, tabiatga, san'at asarlariga, tarix va madaniyat joylarini asrashga, g'amxo'r munosabatda boiishga; bolalarda estetik tuyg'u va estetik tarbiya rivojlanadi, estetik ongni shakllantiriladi. Bundan tashqari kichik sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida tasviriy san'at darslari psixik xususiyatlarini esdan chiqarish kerak emas. Emotsional kechinmalami yengillashtirish, yig'ilib qolgan taassurotlami zarur ruhiy muvozanatni yuzaga keltiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda tasviriy faoliyat maktab yoshdagি bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya -bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi-tevarak atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bulayotgan voqeа-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, xayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishslash kabi sifatlari ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baxolash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida" gi Qonuni O'RQ-637-coh 23.09.2020. 8-moddasi
3. "Maktabgacha ta'lifni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" Xalq so'zi gazetasi 30.09.2020
4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lif va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.
5. Ilk va maktab yoshdagi bolalalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil (Maktabgacha ta'lif vazirligi)
6. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.:2010y.
7. Ilm yo'li" variativ dastur, Toshkent 2019